**Пайдаланылған әдебиятлар**

1. Макки Р. История на миллион долларов: Мастер-класс для сценаристов, писателей и не только / Роберт Макки ; Пер. с англ. — М.: Альпина нон-фикшн, 2008. 456 с.
2. Тилепов Қуатбай Нукусбаевич. Кино-тарбия воситаси. Innovative Development in Educational Activities 2.5 (2023): 314-317.
3. Тилепов Қуатбай Нукусбаевич (2023). Main factors of the history and development of karakalpakfilm film studio. World Bulletin of Social Sciences, *27*, 169-171.
4. Tilepov Quatbay Nukusbayevich. "Qoraqalpoqfilm" davlat unitar karxonasining ta'rixi va rivojlanish yo'llari inter education & global study. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 613-620.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада «Қорақалпоқфилм» киностудияси томонидан 2023 йили суратга олинган «Жаңла қобыз әсирлер гүўасысаң» икки қисмли ҳужжатли фильмида тасвир билан мусиқа ўртасидаги боғлиқликлар, мусиқа ва овоз элементларидан фойдаланиш маҳоратлари ҳақида сўз юритилади.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассказывается о связях между сценой и музыкой, а также о мастерстве использования музыкальных и звуковых элементов в двухсерийном документальном фильме «Звук кобыза - свидетель веков», снятом киностудией «Каракалпакфильм» в 2023 году.

**SUMMARY.** The article discusses the connections between the stage and music, as well as the mastery of using musical and sound elements in the two-part documentary film «The Sound of the Kobyz - Witness of Centuries», filmed by «Karakalpakfilm» studio in 2023.

***BIBLIOGRAFIYA HÁM MÁDENIYAT***

# SHAHAR MADANIYATI VA MUHITINI TA'MINLASHDA YASHIL HUDUDLARNING AHAMIYATI

**Xafiza Abdullayeva Olimho'jaevna** – *dotsent v.v.b.*
*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti*

**Tayanch so'zlar:** yashil hududlar, shahar madaniyati, ekologik barqarorlik, psixologik sog'lomlik, innovatsion shaharsozlik.

**Ключевые слова:** зеленые зоны, городская культура, экологическая устойчивость, психологическое здоровье, инновационное градостроительство.

**Key words:** green spaces, urban culture, ecological sustainability, psychological well-being, innovative urban planning.

## KIRISH

XXI asrda urbanizatsiya jarayonlari tezlashib, aholi zich yashaydigan hududlarning soni oshib bormoqda. Ushbu jarayonlar natijasida shahar infratuzilmasining samarali rivojlanishi bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy muammolar ham kuchaymoqda. Ayniqsa, tabiat resurslaridan oydalanishning ko'payishi shahar ekologik barqarorligiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Yashil hududlar shahar madaniyatining ajralmas qismi sifatida ekologik muvozanatni saqlashda, insonlarning ruhiy va jismoniy salomatligini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, yashil hududlar shahar aholisining ijtimoiy faolligini oshiradi va ularga dam olish imkoniyatini beradi. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yashil hududlarning mavjudligi nafaqat shahar ekologik holatini yaxshilash, balki aholi salomatligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqola shahar madaniyatida yashil hududlarning ahamiyatini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda quyidagi masalalar ko'rib chiqiladi:

1. Yashil hududlarning ekologik, ijtimoiy va psixologik ahamiyati.
2. Shahar infratuzilmasida yashil hududlarning o'rni.
3. Urbanizatsiya sharoitida yashil hududlarni kengaytirish strategiyalari.

Mazkur masalalar bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, amaliy tajribalar va zamonaviy shaharsozlik yondashuvlari asosida xulosalar chiqariladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Shahar ekologiyasi va yashil hududlarning ahamiyati sohasida ko'plab ilmiy ishlar va tadqiqotlar olib borilgan. Xususan, ekologiya va shaharsozlik bo'yicha yetakchi olimlar yashil hududlarning inson salomatligiga, ijtimoiy farovonlikka va ekologik barqarorlikka ta'sirini

o‘rganganlar. Masalan, T.Bitliy [1.233] yashil hududlar insonlarning ruhiy salomatligiga bo‘lgan ta’sirini chuqur tahlil qilgan va ularning depressiya va stress darajasini kamaytirishga yordam berishini ko‘rsatgan. Ushbu yondashuv zamonaviy shaharlarni loyihalashda yashil hududlarning ustuvor ahamiyatini ta’kidlaydi.

Boshqa bir tadqiqotda R.Ulrix [2.141] tabiat manzaralarining inson psixologik holatiga bo‘lgan ijobiy ta’sirini o‘rgangan. Uning fikriga ko‘ra, tabiat bilan bog‘liq bo‘lgan har qanday hududlar inson ongini tinchlantiradi va ijodiy faoliyatni oshiradi. Ayniqsa, shaharlar ichidagi bog‘lar va yashil yo‘laklar aholi uchun nafaqat ekologik, balki ijtimoiy o‘zaro munosabatlarni rivojlantirish uchun ham platforma vazifasini o‘taydi. Yashil hududlarning ekologik jihatlari haqida J.Forman va M.Godron [3.68] ning tadqiqotlari e’tiborga loyiqdir. Ular yashil hududlarning shahar muhitida mikroiqlimni yaxshilash va havo sifatini oshirishdagi rolini tahlil qilganlar. Ularning ishlarida qayd etilishicha, yashil hududlar orqali uglerodni yutish jarayoni kuchayib, shahar havosidagi zararli gazlar miqdori kamayadi.

Shahar madaniyati va yashil hududlar mavzusida olib borilgan milliy tadqiqotlar ham muhimdir. O‘zbekiston shaharlaridagi yashil zonalarni o‘rganish bo‘yicha M.To‘laganov va A.Karimovlar [4.64] tomonidan olib borilgan ishlar yashil hududlarning mahalliy ahamiyatini yoritgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, yashil zonalar mahalliy aholi hayot sifatini yaxshilashda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Mazkur adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yashil hududlar shahar infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, u ekologik barqarorlikni ta’minlash bilan birga, inson salomatligi va ijtimoiy hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Adabiyotlar tahlilida keltirilgan tadqiqotlar zamonaviy shaharsozlikda yashil hududlarni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy asoslarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

## MUNOZARA

Shahar madaniyatida yashil hududlarning roli shahar infratuzilmasining turli jihatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Yashil hududlar inson hayoti sifatini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan ko‘plab omillarni o‘zida mujassam etadi. Munozara qismida yashil hududlarning ekologik, ijtimoiy va psixologik jihatlari atroflicha tahlil qilinadi va turli yondashuvlar asosida umumlashtiriladi.

*Birinchidan*, yashil hududlar ekologik muvozanatni ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ekologik jihatdan, yashil hududlar karbonat angidridni yutish va kislorod ishlab chiqarish jarayonida muhim rol o‘ynaydi. [6] Bundan tashqari, daraxtlar va o‘simliklar shahar mikroiqlimiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, havo haroratini pasaytiradi va namlik darajasini oshiradi. J.Forman va M.Godronning tadqiqotlariga asoslanadigan bo‘lsak, katta shahar hududlarida yashil zonalar orqali ekologik barqarorlikni ta’minlash imkoniyati mavjud. Ammo bu hududlarning urbanizatsiya jarayonida kamayib borishi ushbu barqarorlikka tahdid solmoqda. [3.13]

*Ikkinchidan*, yashil hududlarning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ular shahar aholisi uchun ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash va hamjihatlikni oshirish uchun imkoniyat yaratadi. Bog‘lar, yashil maydonlar va xiyobonlar aholining birgalikda dam olish, sport bilan shug‘ullanish yoki ijtimoiy tadbirlarni o‘tkazish uchun qulay hududlardir. R.Ulrixning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, yashil hududlar shahar aholisida ijtimoiy o‘zaro muloqotni rivojlantiradi va jamiyatdagi ijobiy kayfiyatni oshiradi. [2,78] Masalan, o‘zaro bog‘liq bo‘lgan yashil hududlar tarmog‘i shaharda “yashil infrastrukturani” yaratib, ijtimoiy muhitni yaxshilaydi.

*Uchinchidan*, yashil hududlarning psixologik jihatlarini ko‘rib chiqsak, ular insonlarning ruhiy sog‘lig‘ini yaxshilashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil hududlar stress va xavotirni kamaytirishga yordam beradi. [7] Masalan, T.Beatli va R.Ulrixning tadqiqotlari tabiat bilan muloqot qilgan insonlarning ruhiy holati sezilarli darajada yaxshilanishini isbotladi. Shuningdek, yashil hududlar ijodkorlikni rag‘batlantirishda ham muhimdir. Bu ayniqsa shahar muhitida, stress darajasi yuqori bo‘lgan aholi uchun alohida ahamiyatga ega. [1,45; 2,43]

Bundan tashqari, yashil hududlarning shahar infratuzilmasi uchun iqtisodiy foydasi ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Yashil hududlar atrofidagi ko‘chmas mulk narxlari odatda boshqa hududlardagidan yuqori bo‘ladi. Bu, o‘z navbatida, shahar budjetiga qo‘shimcha daromad keltiradi va yashil hududlarni kengaytirish loyihalariga mablag‘ ajratishga xizmat qiladi.

Yashil hududlarni saqlash va rivojlantirish bo‘yicha zamonaviy shaharsozlik yondashuvlari turli tajribalarni o‘z ichiga oladi. Masalan, Yevropa shaharlarida ekologik jihatdan barqaror yashil infratuzilma loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. [8] Bu loyihalarda yashil yo‘laklar, tom bog‘lari va vertikal bog‘lar singari

innovatsion yechimlar qo‘llanilmoqda. Ammo bu yondashuvlarni amalga oshirishda qator muammolar, jumladan, moliyaviy cheklovlar va yer resurslarining cheklanganligi kabi omillar mavjud. [9] Shu bilan birga, O‘zbekistonda yashil hududlarning saqlanishi va rivojlanishi bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ham muhim ahamiyatga ega. So‘nggi yillarda Toshkent shahri misolida olib borilayotgan landshaft dizayni loyihalari va yangi bog‘lar tashkil etish tashabbuslari shahar ekologiyasini yaxshilash va aholiga qulay muhit yaratish uchun katta qadamdir. [10]

Xulosa qilib aytganda, yashil hududlar shahar madaniyatida ekologik, ijtimoiy va psixologik jihatlari bilan beqiyos ahamiyatga ega. Ularni saqlash va rivojlantirish zamonaviy shaharlarning asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Ammo ushbu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun global tajribalardan o‘rganish va innovatsion yechimlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish lozim. Munozaradan kelib chiqadigan asosiy xulosa shuki, yashil hududlarni rivojlantirish faqat ekologik barqarorlik emas, balki shahar madaniyatining uzviy qismi sifatida ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishni ham ta’minlaydi.

## NATIJALAR

Mazkur maqola doirasida olib borilgan tahlillar quyidagi muhim xulosalarni taqdim etadi:

*Ekologik muvozanatni saqlash:* Yashil hududlar shahar ekologik tizimining barqarorligini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ular atmosferaga chiqayotgan karbonat angidridni yutish orqali havoni tozalaydi, mikroiqlimni yaxshilaydi va shahar muhitida ekologik muvozanatni saqlashga yordam beradi. [11]

*Ijtimoiy ahamiyat:* Yashil hududlar shahar aholisining jismoniy va ruhiy sog‘lomligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, yashil zonalarda ko‘proq vaqt o‘tkazadigan insonlar stress va depressiyadan holi bo‘lishadi. [12-13] Bundan tashqari, bunday hududlar ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega.

*Shahar infratuzilmasining ajralmas qismi:* Yashil hududlar zamonaviy shahar infratuzilmasining ajralmas qismi bo‘lib, ular nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va estetik afzalliklarga ega. [14] Shaharlarning obodonlashtirilgan yashil hududlari turizmni rivojlantirish, aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratish va investitsiyalarni jalb etish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

*Strategik yondashuv zarurati:* Yashil hududlarni rivojlantirish uchun strategik rejalashtirish zarur[15]. Bu jarayonda mahalliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish, shuningdek, aholining fikr-mulohazalarini inobatga olish muhimdir. Urbanizatsiya sharoitida yashil hududlarni kengaytirish uchun texnologik yondashuvlardan, jumladan, "vertikal bog‘lar" va "yashil tomlar" kabi innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarur. [16]

Shunday qilib, yashil hududlar nafaqat shahar madaniyati va infratuzilmasini yaxshilash, balki ekologik barqarorlikni ta’minlash va inson salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy shaharsozlikda yashil hududlarning ahamiyatini chuqur anglash va ularni kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Shahar madaniyatida yashil hududlar nafaqat ekologik muvozanatni ta’minlash, balki inson salomatligi va ijtimoiy hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ular atmosfera havosini tozalash, mikroiqlimni yaxshilash, shuningdek, shahar muhitida ekologik barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Yashil zonalar shahar aholisining jismoniy va ruhiy sog‘lig‘ini yaxshilash bilan birga, stress va depressiya darajasini kamaytiradi, ijtimoiy aloqalarni mustahkamlaydi va fuqarolar uchun qulay dam olish muhitini yaratadi.

Zamonaviy shahar infratuzilmasida yashil hududlar obodonlashtirish jarayonlarining ajralmas qismiga aylangan bo‘lib, ularning mavjudligi nafaqat ekologik, balki iqtisodiy va estetik jihatdan ham katta ahamiyatga ega. Shaharlar o‘zining yashil zonalari bilan nafaqat turizmni rivojlantirishi, balki aholi uchun qulay yashash sharoitlarini yaratib, investitsiyalarni jalb etishi mumkin. Shuningdek, yashil hududlarni rivojlantirishda strategik yondashuv zarur bo‘lib, bu jarayonda mahalliy va xalqaro tajribalarni o‘rganish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xususan, «vertikal bog‘lar» va «yashil tomlar» kabi innovatsion echimlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, yashil hududlarning kengaytirilishi shaharlarning ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi. Yashil hududlar shahar madaniyatining ajralmas qismi sifatida ko‘rilishi lozim. Quyidagi takliflar beriladi:

Shahar infratuzilmasini rejalashtirishda yashil hududlarga alohida e’tibor qaratish. Yashil hududlarni ko‘paytirish bo‘yicha davlat dasturlarini kengaytirish. Yashil hududlarni saqlash va rivojlantirish uchun mahalliy hamjamiyatlarni jalb qilish.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Beatley T. Biophilic Cities: Integrating nature into urban design and planning. Island Press. 2011.
2. Ulrich R. View Through a Window May Influence Recovery from Surgery. Science. –1984. – Vol.224(4647), – P.420-421.
3. Forman, R. T., and Godron, M. Landscape Ecology. New York: John Wiley and Sons. 1995.
4. To‘laganov M., Karimov A. O‘zbekiston shaharlarida yashil hududlarni rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari. Ekologiya va Barqaror Taraqqiyot. – 2018. – Vol.2(4). – P.18-24.
5. O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya qo‘mitasi. Ekohududlar rivoji hisobotlari. 2022.
6. Chiesura A. The Role of Urban Parks for the Sustainable City. Landscape and Urban Planning. – 2004. – 68(1). – P.129-138.
7. Gascon M., et al. Green Spaces and Health: A Systematic Review of the Evidence. Environmental Research, – 2015.– Vol.140. – P.110-117.
8. Newman P., Jennings, I. Cities as Sustainable Ecosystems: Principles and Practices. Washington, DC: Island Press. 2008.
9. Cilliers S., Cilliers, J., Lubbe, R., Siebert, S. Ecosystem Services of Urban Green Spaces in African Countries. Urban Ecosystems. – 2013. – Vol.16(4). – P.681-702.
10. World Health Organization (WHO). Urban Green Spaces and Health: A Review of Evidence. Copenhagen: WHO Regional Office for Europe. 2016.
11. Van den Berg, A. E., Hartig, T., Staats, H. Preference for Nature in Urbanized Societies: Stress, Restoration, and the Pursuit of Sustainability. Journal of Social Issues. – 2007. – Vol. 63(1). – P.79-96.
12. Mowla Q. Green Architecture and Urban Sustainability: Principles and Practices. Journal of Environmental Research and Development. – 2012. –Vol. 6(4). – P.1145-1156.
13. Dinnie E., Brown, K., Morris, S. Community, Cooperation, and Conflict: Negotiating the Social Well-being Benefits of Urban Green Space. Landscape and Urban Planning. – 2013. – Vol.112. – P.1-9.
14. Turner T. City as Landscape: A Post-Postmodern View of Design and Planning. London: Spon Press. 1996.
15. Jacobs J. The Death and Life of Great American Cities**.** New York: Random House. 1961.
16. Rahmatov, D. Ekologik shaharlar: Barqaror rivojlanish uchun yashil hududlar. O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Axborotnomasi. – 2019. – № 1(3). B.55-62.

**REZYUME.** Ushbu maqolada shahar madaniyatida yashil hududlarning tutgan o‘rni va ahamiyati keng tahlil qilingan. Urbanizatsiya jarayonlari shaharlarning ekologik barqarorligiga va ijtimoiy muhitiga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda, shu sababli yashil hududlarni rivojlantirish va kengaytirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Yashil hududlar nafaqat shahar ekologik tizimining barqarorligini saqlashda, balki aholi salomatligini yaxshilashda, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirishda va shahar infratuzilmasini estetik jihatdan boyitishda muhim rol o‘ynaydi. Mazkur maqolada yashil hududlarning ekologik afzalliklari, ijtimoiy va psixologik ahamiyati ilmiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlar asosida tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy shaharsozlikda yashil hududlarni kengaytirish bo‘yicha innovatsion yondashuvlar, jumladan, «vertikal bog‘lar» va «yashil tomlar» kabi texnologik echimlar ko‘rib chiqilgan. Yashil hududlarni rivojlantirishda xalqaro va mahalliy tajribalarni uyg‘unlashtirish zarurligi ta’kidlanib, ushbu jarayonda barqarorlikni ta’minlash uchun strategik rejalashtirishning ahamiyati alohida qayd etilgan. Maqola orqali yashil hududlarning shahar ekologiyasi, infratuzilmasi va ijtimoiy hayot sifatini yaxshilashdagi o‘rni yoritilgan bo‘lib, bu borada kelgusida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlar va ilmiy takliflar ilgari surilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье подробно анализируется роль и значение зеленых зон в городской культуре. Процессы урбанизации оказывают серьезное влияние на экологическую устойчивость и социальную среду городов, поэтому вопрос развития и расширения зеленых зон приобретает актуальное значение. Зеленые зоны играют важную роль не только в поддержании устойчивости городской экологической системы, но и в улучшении здоровья населения, развитии социальных отношений и эстетическом обогащении городской инфраструктуры. В данной статье на основе научных источников и современных исследований проанализированы экологические преимущества, социальная и психологическая значимость зеленых зон. Также рассмотрены инновационные подходы к расширению зеленых зон в современном градостроительстве, включая такие технологические решения, как «вертикальные сады» и «зеленые крыши». Необходимо гармонизировать международный и местный опыт в развитии зеленых зон.

**SUMMARY.** This article provides a comprehensive analysis of the role and importance of green spaces in urban culture. Urbanization processes have significantly impacted the ecological stability and social environment of cities, making the development and expansion of green spaces a critical issue. Green spaces play a vital role not only in maintaining the ecological balance of urban ecosystems but also in improving public health, fostering social relationships, and enhancing the aesthetic quality of urban infrastructure.The article examines the ecological, social, and psychological benefits of green spaces, drawing on scholarly sources and contemporary research. It also explores innovative approaches in modern urban planning, such as «vertical gardens» and «green roofs», as solutions for increasing green spaces. The importance of integrating international and local experiences in green space development and the need for strategic planning to ensure sustainability are emphasized.Through this discussion, the article highlights the role of green spaces in improving urban ecology, infrastructure, and social life, presenting actionable measures and scientific recommendations for future implementation.

## КИТАПХАНА ПЕДАГОГИКАСЫ

**Кабулова Мехрибан Толыбаевна** – *үлкен оқытыўшы,*
*педагогика илимлери бойынша философия докторы(PhD)*
*Өзбекстан мәмлекетлик көркем өнер ҳәм мәденият институты Нөкис филиалы*

**Таянч сўзлар:** кутувхоначи, китоб, китобхон, ўқиш, таълим, ижод, яратиш.
**Ключевые слова:** библиотекарь, книга, читатель, чтение, воспитание, творчество, созидание.
**Key words:** librarian, book, reader, reading, education, creativity, creation.

Өзбекстан Республикасы ғәрезсизликке ерискеннен соң жәмийет раўажланыўының барлық тараўларында: сиясатта, экономикада, көркем әдебиятта, мәдениятта, педагогикада, руўхыйлық ҳәм ағартыўшылықта үлкен өзгерислер жүз берди.

Руўхый мәдениятымызды илимлер арқалы раўажландырыў, жетискенликлер менен байытып барыў, өзлигимизди тереңирек аңлаў, миллий идея хәм ғәрезсизлик идеологиясы принциплерин халқымыз санасына сиңдириў тийкарғы ўазыйпалардан бири болып есапланады. Хүкиметимиз тәрепинен илимий қәнигелер таярлаўды ҳәм олардың тәжирийбесин арттырыў, илимий тексериў мәкемелериниң тармақларын кеңейтиў, илимий мийнетлер ҳәм оқыў әдебиятларын көбейтиў ушын барлық қолайлықлар жаратып бермекте. Бул ҳәр бир инсаннан усы үлкен информация әлемине кирип барыў, оннан өзине зәрүрли мағлыўматты ала билиў көнликпесин, шеберлигин ийелеўди талап етекте. Ҳәзирги ўақта интернет тармағы жүдә кеңейди. Енди китап оқыўшы дүнья жүзиндеги қәлеген мәмлекеттиң китапхана фондындағы көркем әдебиятлар хаққындағы, дүнья халықларының руухый мәдениятындағы өзгерислер ҳаққында өз китапханасында отырып мағлыўмат алыў мүмкиншилигине ийе. Жасларда мәлимлеме мәдениятын тәрбиялаўда жоқары ҳәм улыўма билим бериў оқыў орынларының ҳәм балалар китапханаларының тийкарғы ўазыйпасы болып есапланады. Себеби, китап оқыўшы көбирек ўақтын китапханаларда өткереди. Сонлықтан китапханашы-педагог таярлаў ўазыйпасы әҳмийетли ўазыйпалардан бири.

Өзбекстан китапханаларындағы педагогикалық искерлик тәлим-тәрбия процессинде зәрүрли орын тутады, информациядан пайдаланыўды тәмийинлеўди ҳәм жәмийеттиің мәдений-интеллектуаллық қәдириятларын қәлиплестириўге үлес қосады.

Китапхана педагогикасы ҳаққында ойлаўда тийкарғы пикирди өткерип жибермеслик ушын әўеле улыўма түсиникти көрип шығыў мақсетке муўапық болып табылады. “Тәрбияшы” термини грекше “падагогос” сөзинен келип шыққан болып, сөзбе-сөз “балалар жетекшиси” деген мәнисти аңлатады. Әййемги заманларда бул “баланы басқарған” шахс еди. Кейинирек бул терминниң мәниси кеңейди: оқытыўшы балаға турмыс даўамында жолдас болған, яғный билим берген, оқытқан шахс деп атала басланды. Бул синоним сөзлерден: муғаллим, оқытыўшы, педагог, ең кең мәниси “педагог” болып табылады. “Оқытыўшы” сөзи заманагөй “педагогика” түсиниги – тәлим ҳәм тәрбия пәни менен байланыслы. Оқытыўшының педагогика бойынша қәниге, оқытыў, үйретиў, билим бериў, тәрбиялаў ушын кәсиплик таярлыққа ийе десекте алжаспаймыз. Перзент тәрбиясы ҳаққындағы пән ретинде басланған педагогика эволюция процессинде кеңейип, тәлим, тәрбия, методика сыяқлы түсиниклерди